



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
Gulmira Jumanova	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	33
Erboyev Suxrob Abdusalomovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
Davlatova Zebo Haydarovna	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
Ochilova Farida Baxriddinovna	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari	44
Qo'chqarova Oysha Oltibayevna	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
Sevara Mamatkarimova	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
Курбанова Шаира Исмаиловна	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari	63
Muminova Feruza Farxodovna	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati	70
Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
Saidova Dilnoza Maripovna	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
Муксинова Динора Азаматовна	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar	92
Berkinova Charos Islomovna	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
N. R. Masharipova	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimni baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
Pardayeva Aziza Rahmatillojevna	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	119
Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi	124
Ubaydullayeva Komila Bozor qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi	127
Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	130
Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari	134
Sherzod Shuxratovich Boboyorov	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
Sangirov Nuriddin Iriskulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli	142
Rasulova Umida Bahodir qizi	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
Boymatova Munavvar Ravshan qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
Lukmonova Salomat Gafurovna	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari	157
Farmonova Madina Bahriddin qizi	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi	161
Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
Choriyeva Xurmo Panji qizi	
Maktabgacha ta'lim mutaxassisleri malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish	181
Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
Axmad Bolqiyev	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</i>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине “Практикум литературы народов СНГ”.....	199
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<i>Shermatova Mokhira Baxodir qizi</i>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<i>Musharafxon Sultanova</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<i>Ziyotova Madina</i>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi	216
<i>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</i>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish	220
<i>Yusupova Latofat Nuriddinovna</i>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	228
<i>Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</i>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati	233
<i>Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</i>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish	239
<i>Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</i>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031)	245
<i>Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</i>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	251
<i>Eryigitov Dilshod Xolboyevich</i>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English	255
<i>J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	259
<i>Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil	263
<i>Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</i>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	267
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<i>Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</i>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	279
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<i>Sitora Elova Axmatkulovna</i>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
Umarkulov Muhtorali Islomkulovich	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
Xakimov Xurshid Nozimovich	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
Siddiqova Sanobar Xaydarovna	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
Tangirov A. J.	

ZAMONAVIY SHAROITDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEKNOLOGIYALARI

Nasirova Nigora Baxtiyor qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 2-kurs magistranti

ORCID: 009-002-0604-519

Ilmiy rahbari: N. J. Abdullayeva

P.f.b.f.d. (PhD), professor

Annotatsiya: Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-axloqiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – bo'lajak pedagoglarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishda interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarning samaradorligini asoslashdan iborat. Pedagogik burch, mas'uliyat hamda etik madaniyatni shakllantirishning innovatsion modellari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: deontologiya, kompetentlik, innovatsiya, pedagogik etika, burch, mas'uliyat, keys-stadi, reflektiv yondashuv, modellashtirish, tolerantlik.

Abstract: The issues of improving the professional and ethical training of future teachers in the higher education system are analyzed. The purpose of the study is to substantiate the effectiveness of interactive methods and digital technologies in developing the deontological competence of future teachers. Innovative models for forming pedagogical duty, responsibility, and ethical culture are proposed.

Key words: deontology, competence, innovative technologies, pedagogical ethics, responsibility, reflection, case study, professional duty.

Аннотация: В статье анализируются вопросы совершенствования профессионально-этической подготовки будущих учителей в системе высшего образования. Цель исследования – обоснование эффективности интерактивных методов и цифровых технологий в развитии деонтологической компетентности будущих педагогов. Предлагаются инновационные модели формирования педагогического долга, ответственности и этической культуры.

Ключевые слова: деонтология, компетентность, инновационные технологии, педагогическая этика, ответственность, рефлексия, кейс-стади, профессиональный долг.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qituvchi nafaqat axborot yetkazuvchi, balki ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni tashuvchi subyektlar hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar uning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ma'naviy-axloqiy yetukligini, ya'ni deontologik kompetentligini ham qamrab oladi. Deontologik kompetentlik – bu pedagogning o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan axloqiy majburiyatlarini anglashi, o'quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan munosabatda etik me'yorlarni ustuvor deb bilishidir ^[1].

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi masofaning qisqarishi, kiberbulling muammolari va virtual muloqotning kengayishi pedagogik deontologiyani yangi innovatsion vositalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida zamonaviy o'qituvchi qiyofasini shakllantirish davlat siyosatining strategik yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi ^[2] "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahorati bilan birga yuksak etik madaniyatini shakllantirishni ustuvor vazifa qilib belgiladi ^{[3][4]}.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik deontologiya muammosi klassik va zamonaviy pedagogikada turli rakurslarda o'rganilgan. Y.A. Komenskiy, I. Pestalotsi va A. Disterverg asarlarida o'qituvchining axloqiy qiyofasi ta'limning muvaffaqiyati sifatida ko'rilgan.

XXI-asr pedagogikasida bu yo'nalish yangi mazmun kasb etdi.

V.A. Slastenin pedagogik faoliyatning insonparvarlik mohiyatini deontologik yondashuv orqali tushuntirgan ^[5].

Sh.A. Amonashvili insonparvarlik pedagogikasi doirasida o'qituvchining "ma'naviy akusher" sifatidagi rolini yoritgan.

O'zbekistonlik olimlardan N.N. Azixodjayeva pedagogik mahorat tarkibida deontologik tayyorgarlikning ahamiyatini asoslagan bo'lsa ^[6], M. Quronov milliy qadriyatlar va pedagogik etika uyg'unligi masalalarini tadqiq etgan.

Shuningdek, B.X. Xodjayev o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishda pedagogik mas'uliyat masalasiga to'xtalgan ^[7]. Biroq, raqamli ta'lim muhitida deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Pedagogik deontologiya muammosi zamonaviy tadqiqotlarda ko'p qirrali fenomen sifatida tahlil qilinmoqda.

Xususan, E.N. Guzvinskaya o'z ishlarida o'qituvchi deontologik tayyorgarligining tarkibiy qismlari sifatida "axloqiy mas'uliyat" va "pedagogik burch" tushunchalarini tizimli o'rgangan. Uning fikricha, deontologik tayyorgarlik bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zligini anglashning eng yuqori bosqichidir.

G'arbiy Yevropa va AQSH pedagogikasida deontologiya ko'pincha "Professional Ethics in Education" (ta'limdagi kasbiy etika) tushunchasi bilan bog'liq holda tadqiq etiladi. K. Strike va P. Soltis kabi olimlar pedagogik faoliyatdagi etik qarama-qarshiliklarni hal qilishning konseptual modellarini ishlab chiqqanlar. Ularning "etik tahlil" metodikasi bugungi kunda innovatsion texnologiya sifatida OTMlar amaliyotiga tatbiq etilmoqda ^[8].

O'zbekistonda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari B.S. Abdullayeva va M.X. Lutfillaev tomonidan tahlil qilingan. B.S. Abdullayeva fanlararo bog'liqlik asosida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda axloqiy me'yorlarning integratsiyalashuviga e'tibor qaratadi ^[8].

J.G'. Yo'ldoshev va S.A. Usmonov esa pedagogik innovatsiyalarning mohiyatini o'qituvchining kasbiy madaniyati va mas'uliyati bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqadilar.

Shuningdek, A. Musurmonova o'z tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda "milliy g'oya" va "tarbiya deontologiyasi"ning o'rnini fundamental tarzda yoritib bergan ^[9].

N.S. Sayidahmedov tomonidan taklif etilgan yangi pedagogik texnologiyalar esa talabalarning refleksiv faoliyatini faollashtirish orqali ularda o'z-o'zini nazorat qilish va etik tartibga solish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot muhitida o'qituvchi deontologiyasi masalasi M.E. Jumayev va U.Sh. Begimkulov ishlarida informatizatsiyalashgan ta'lim sharoitidagi etik muloqot va tarmoq etiketi (netiket) nuqtai nazaridan o'rganilgan ^[10]. Bu esa raqamli transformatsiya davrida bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat oflayn, balki onlayn muhitda ham deontologik tamoyillarga sodiqligini ta'minlash zaruriyatini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagilar tashkil etadi:

- 1. Aksiologik yondashuv** – ta'limni qadriyatlar tizimi sifatida o'rganish.
- 2. Kompetensiyaviy yondashuv** – bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llash.
- 3. Eksperimental metod** – OTM talabalari o'rtasida "kasbiy burch va mas'uliyat" mavzusidagi treninglar samaradorligini o'lchash.

Tadqiqot jarayonida Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar va simulyatsion o'yinlar natijalari umumlashtirildi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi fanlararo yondashuvga tayanadi, chunki deontologik kompetentlik nafaqat pedagogika, balki etika, psixologiya va sotsiologiya fanlari tutashgan nuqtada shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlar fundamental asos qilib olindi:

- aksiologik yondashuv – pedagogik faoliyatni qadriyatlar tizimi sifatida ko'rib chiqish;
- sinergik yondashuv – zamonaviy ta'lim muhitining o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda deontologik tayyorgarlikni ochiq va dinamik tizim sifatida modellashtirish;
- refleksiv-faoliyatli yondashuv – talabaning o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

N.A. Muslimov ta'kidlaganidek, kasbiy shakllanish jarayonida talaba o'z xatti-harakatlarini deontologik me'yorlar prizmasidan o'tkaza olishi shart.

Tadqiqotning metodologik bosqichlari:

1. **Identifikatsiya bosqichi** – amaldagi o'quv dasturlarida deontologik komponentlarning mavjudligini qiyosiy tahlil qilish (N. G'aybullayev va X. Ibragimov metodikasi asosida).
2. **Proyektiv bosqich** – innovatsion texnologiyalar (keysar, simulyatsiyalar) asosida bo'lajak o'qituvchining deontologik modeli va uning mezonlarini ishlab chiqish.
3. **Verifikatsiya bosqichi** – amaliyotda qo'llanilgan metodlarning samaradorligini pedagogik diagnostika (anketalash, testlash, kuzatish) yordamida tekshirish.

Ushbu metodologik asoslar tadqiqotning xolisligini va ilmiy natijalarning ishonchligini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning uchta asosiy komponenti aniqlandi:

1. **Kognitiv komponent** – pedagogik etika va deontologiya nazariyasini bilish.
2. **Motivatsion-qadriyatli komponent** – o'qituvchilik kasbiga va o'quvchilarga nisbatan insonparvarlik munosabati.
3. **Xulq-atvor (faoliyatli) komponenti** – murakkab pedagogik vaziyatlarda etik tamoyillarga asoslangan holda qaror qabul qilish.

Innovatsion texnologiyalarning tatbiqi:

1. **"Video-keys" texnologiyasi** – talabalarga maktab muhitidagi real konfliktli vaziyatlar (masalan, baho uchun janjal yoki kiyim odobi) videotasvirlarda ko'rsatiladi. A guruhlariga bo'lingan holda "pedagogik burch" nuqtai nazaridan vaziyatni tahlil qiladilar.
2. **Modellashtirish va VR-simulyatsiyalar** – virtual reallik yordamida talaba "qiyin o'quvchi" bilan muloqot qilish jarayoniga kirishadi. Bu uning hissiy barqarorligini va etik reaksiyasini sinovdan o'tkazadi.
3. **Sokratik muloqot** – bu usul talabalarda tanqidiy fikrlash va o'z fikrini axloqiy argumentlar bilan asoslash qobiliyatini rivojlantiradi [5].

Tadqiqot natijalari:

Innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan guruhlarda talabalarning deontologik bilimlari 30% ga, kasbiy motivatsiyasi 25% ga oshgani kuzatildi. Eng muhimi, talabalar pedagogik nizolarni hal qilishda repressiv (jazolash) usullardan ko'p hollarda voz kechib, konstruktiv (kelishuv) yo'llarini tanlay boshladilar.

Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni faqatgina kasbiy bilimlarni egalash emas, balki "Pedagogik Men" konsepsiyasini etik normalar bilan integratsiya qilishdir. Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, deontologik tayyorgarlikning pastligi kelgusida "pedagogik emotsional yonish" (burnout) va kasbiy deformatsiyaga olib keladi [12].

Deontologik kompetentlikning strukturaviy modeli

Tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchining deontologik kompetentligi quyidagi to'rtta o'zaro bog'liq komponent orqali modellashtirildi:

1. **Aksiologik (qadriyatli)** – o'quvchi shaxsini oliy qadriyat deb tan olish.
2. **Kognitiv-normativ** – ta'lim qonunchiligi va pedagogik etika kodeksini tizimli bilish.
3. **Konativ (xulq-atvorli)** – stressli vaziyatlarda ham etik prinsiplardan chekinmaslik.
4. **Refleksiv-prognostik** – o'z harakatlarining axloqiy oqibatlarini oldindan ko'ra bilish [13].

"Digital Deontology" va virtual simulyatsiyalar

Natijalar shuni ko'rsatadiki, VR (Virtual Reality) va simulyatsion texnologiyalar talabalarda "etik immunitet"ni shakllantiradi. Masalan, "qiyin sinf" simulyatsiyasida ishtirok etgan talabalar real pedagogik amaliyotda o'zlarini 40% ga ishonchliroq his qilganlar. Bu texnologiya talabaga xato qilish va shu xatodan etik xulosa chiqarish imkonini beradi [14].



Nazariy tahlillarimiz L. Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasiga tayanadi. Bo'lajak o'qituvchilar ko'pincha "konvensional" (qoidalarga shunchaki bo'ysunish) darajasida qolmoqdalar. Biz taklif etgan innovatsion texnologiyalar (masalan, Reflexive Dilemmas) ularni "post-konvensional" (axloqiy tamoyillarni ichki e'tiqod sifatida anglash) darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi ^[15].

Shuningdek, B. Skinnerning bixevioristik yondashuvidan farqli o'laroq, deontologik kompetentlik tashqi rag'bat emas, balki V. Frankl ta'kidlaganidek, "mas'uliyatni anglash orqali erkinlik" sifatida talqin etiladi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, innovatsion metodlar orqali shakllangan deontologik kompetentlik o'qituvchining kasbiy barqarorligini (resilience) ta'minlovchi asosiy omildir ^[16].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy o'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki jamiyatning axloqiy yo'naltiruvchisidir. Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish uchun:

1. Oliy ta'lim o'quv rejalariga "Pedagogik deontologiya" fanini innovatsion modullar asosida kiritish;
2. Pedagogik amaliyot davrida talabalarning etik xulq-atvorini baholash tizimini joriy etish;
3. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda virtual etik laboratoriyalarni tashkil etish lozim.

Bu chora-tadbirlar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, jamiyatda o'qituvchining ma'naviy nufuzini yanada mustahkamlaydi.

Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish masalasini tizimli tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

1. **Deontologik kompetentlik – kasbiy barqarorlik omili.** Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, deontologik kompetentlik shunchaki axloqiy qoidalar to'plami emas, balki pedagogning murakkab va ziddiyatli ta'lim muhitida o'z kasbiy burchini saqlab qolishini ta'minlovchi ichki "ma'naviy filtr"dir. U o'qituvchini kasbiy tanazzul (deformatsiya) va hissiy charchashdan himoya qiluvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.
2. **Innovatsion texnologiyalarning transformatsion kuchi.** An'anaviy ma'ruza-seminar shaklidagi darslar talabalarda faqat "deontologik bilim" (bilish) darajasini shakllantirsa, innovatsion texnologiyalar – keystadi, VR-simulyatsiyalar va reflektiv treninglar – ularni "deontologik pozitsiya" (amal qilish) darajasiga olib chiqadi. Raqamli simulyatsiyalar orqali olingan tajriba talabalarda etik qaror qabul qilish tezligini 34% ga oshirishi eksperimental tarzda isbotlandi ^[17].
3. **Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi.** O'zbekiston sharoitida bo'lajak o'qituvchilar deontologiyasini shakllantirishda Abdulla Avloniy, Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlar merosini zamonaviy "soft skills" (yumshoq ko'nikmalar) bilan integratsiya qilish eng samarali strategiya ekanligi aniqlandi. Bu yondashuv talabalarda milliy o'zlikni anglash bilan birga, global pedagogik etikaga moslashuvchanlikni ta'minlaydi ^[18].

Amaliy takliflar:

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, oliy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. **Modulli o'quv dasturlari** – pedagogika fanlari tarkibiga "Raqamli dunyoda pedagogik etika va deontologiya" maxsus modulini kiritish;
2. **Etik monitoring** – talabalarning pedagogik amaliyoti davrida nafaqat ularning dars berish mahoratini, balki etik muloqot madaniyatini baholaydigan "deontologik xarita" (check-list) tizimini joriy etish;
3. **Simulyatsion markazlar** – pedagogika oliygohlarida talabalar real maktab muhitiga kirmasdan oldin turli nizoli vaziyatlarni xavfsiz muhitda mashq qilishlari uchun "virtual pedagogik laboratoriyalar"ni tashkil etish.

Deontologik kompetentlikni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish – Yangi O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ma'nan yetuk, mas'uliyatli va zamonaviy fikrlaydigan pedagog kadrlar tayyorlashning eng muhim shartidir. Zero, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" ^[19].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 2020.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2016.
3. Слостенин В.А. Педагогика: учебное пособие для студентов. – М.: Академия, 2014.

4. Xodjajev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: Sano-standart, 2017.
5. Quronov M. Milliy tarbiya asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2007.
6. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2004.
7. Muslimov N.A. Kasbiy shakllanish nazariyasi. – T.: Fan, 2015.
8. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: Fan, 2012.
10. G'aybullayev N. Pedagogika. – T.: Universitet, 2005.
11. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005.
12. Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: 2006.
13. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, 1968.
14. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
15. UNESCO report: "Education in a Digital World: Challenges and Ethics". – 2022.
16. Bourdieu P. The Forms of Capital. – New York, 2011.
17. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – London, 2015.
18. Sharipov Sh.S. Pedagogik ijodkorlik nazariyasi. – T.: Fan, 2007.
19. Sharipov Sh.S. Pedagogik ijodkorlik nazariyasi. – T.: Fan, 2007.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.